



TRANSMISSION OF HISTORICAL HERITAGE AND VALUES IN THE CONSCIOUSNESS OF YOUTH IN UZBEKISTAN: A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Dilnoza Innatovna Asadova

Senior Lecturer, Department of Philosophy

Tashkent State University of Economics

Email: dilnoza-asadova@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: transmission, historical consciousness, social consciousness, values, identity, axiology, critical thinking, idealization, globalization, modernity.

Received: 19.11.25

Accepted: 20.11.25

Published: 21.11.25

Abstract: This paper explores the socio-philosophical dimensions of how historical heritage and cultural values are transmitted to the consciousness of the youth in Uzbekistan. It frames heritage not merely as static material artifacts, but as socially constructed and dynamically reinterpreted elements within collective memory. The study analyzes the complex mechanisms of intergenerational value transmission, including selective appropriation, ideological framing, and media mediation. Particular focus is given to the dangers of excessive idealization and mythologization of history, the romanticized perception of the past, and the resulting detachment from historical accuracy. Additionally, the tension between traditional collectivist norms and modern liberal individualism is critically assessed as part of the identity formation process.

O'ZBEKISTONDA YOSHLAR ONGIDA TARIXIY MEROS VA QADRIYATLAR TRANSMISSIYASI

Dilnoza Innatovna Asadova

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti

"Falsafa" kafedrasi katta o'qituvchisi

dilnoza-asadova@mail.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlari: transmissiya, tarixiy ong, ijtimoiy ong, qadriyatlar, identitet, aksiyologiya, tanqidiy tafakkur, idealizatsiya, globallashuv, zamonaviylik.

Annotasiya: Mazkur maqolada Oʻzbekistonda yosh avlod ongida tarixiy meros va qadriyatlar transmissiyasi jarayonining ijtimoiy-falsafiy mohiyati tahlil etiladi. Tarixiy merosning faqat moddiy boylik emas, balki ijtimoiy ongda dinamik tarzda talqin qilinuvchi maʼnaviy-konstruktsiyaviy fenomen sifatida qaralishi asoslanadi. Transmissiya - qadriyatlarning avlodlararo uzatilishining murakkab madaniy, ideologik va kommunikativ mexanizmlarini oʻz ichiga oladi. Muallif, bu jarayonda ijtimoiy institutlar, zamonaviy media vositalari va tanqidiy tafakkur muhim oʻrin tutishini taʼkidlaydi. Ayniqsa, yoshlarning tarixiy ongida idealizatsiyalash va mifologizatsiya holatlari, tarixga romantik yondashuv, tarixiy haqiqatdan chekinish xavfini kuchaytirishi muhim masala sifatida koʻtariladi. Shu bilan birga, qadriyatlarning selektiv talqini, gʻarbcha individualizm bilan ziddiyatda shakllanayotgan identitet muammosi ham tahlil markazida turadi.

ТРАНСМИССИЯ ИСТОРИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ И ЦЕННОСТЕЙ В СОЗНАНИИ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Дилноза Иннатовна Асадова

Старший преподаватель кафедры «Философия»

Ташкентский государственный экономический университет

Email: dilnoza-asadova@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: трансмиссия, историческое сознание, социальное сознание, ценности, идентичность, аксиология, критическое мышление, идеализация, глобализация, модернизация.

Аннотация: В статье рассматривается трансмиссия исторического наследия и ценностей в сознании молодежи Узбекистана с точки зрения социальной философии. Историческое наследие представляется не только как совокупность материальных объектов, но как динамически интерпретируемый феномен в структуре общественного сознания. Автор подчеркивает, что процесс трансмиссии включает в себя сложные механизмы культурной селекции, идеологической фильтрации и коммуникации между поколениями. Анализируются проблемы идеализации и мифологизации прошлого, а также конфликты между традиционными

коллективистскими ценностями и современными индивидуалистическими установками. Особое внимание уделено роли социальных институтов, медиа, а также важности критического мышления в этом процессе.

Kirish. Zamonaviy O'zbekiston sharoitida yosh avlodni tarixiy ongli va qadriyatli shaxs sifatida shakllantirish, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Chunki tarixiy meros va qadriyatlar, nafaqat o'tgan davr tajribalarining ko'zgusi, balki hozirgi va kelajak avlodlar ongini shakllantirishda uzviy ko'prik bo'lib xizmat qiluvchi aksiologik resursdir. Bu merosning yoshlar ongiga uzatilishi esa, "transmissiya" tushunchasi orqali chuqurroq tahlil etiladi. Ayni tushuncha – ya'ni qadriyatlar transmissiyasi – ijtimoiy-falsafiy jarayon sifatida, avlodlararo ma'naviy uzviylik, tarixiy xotira va identitetni davom ettiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar va tadqiqotlar. Yoshlarning tarixiy ongini shakllantirishda qadriyatlar transmissiyasi o'zining ko'p bosqichli, ijtimoiy-madaniy kontekstlarga bog'liq va ideologik jihatdan murakkab strukturasiga ega bo'lib, u quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: avvalo, tarixiy merosning tanlanishi va baholanishi; keyin esa, uni zamonaviy kontekstda aktallashtirish; so'ngra esa yosh avlodga kommunikativ, tarbiyaviy, ta'limiy vositalar orqali uzatish. Bu bosqichlarning har biri ijtimoiy institutlar (ota-ona, maktab, OAV, davlat siyosati, diniy-ma'naviy muassasalar) orqali amalga oshadi va bu institutlarning har birida qadriyatlarning o'ziga xos talqini, shakllantirish metodikasi mavjud bo'ladi [1: 11–14-betlar].

Aksiologik nuqtai nazardan, qadriyatlar tarixiy xotiraning axloqiy yo'naluvchisidir. Chunki ularning har biri o'z vaqtida jamiyat tomonidan ijobiy baholanib, avlodlar ongida "normalashgan" axloqiy, siyosiy, estetik yoki diniy meyorga aylangan. Shu sababli, qadriyatlar faqat tarixiy meros emas, balki bu merosning ma'naviy maqsadlarda faol ishlatilayotgan dinamik shaklidir [2]. Shu bilan birga, yoshlar ongida bu qadriyatlarni faqat passiv qabul qilish emas, balki ularni tanqidiy tahlil qilish, ularning tarixiy sharoitlar bilan qanday bog'liq holda shakllanganini anglash lozim bo'ladi. Zero, har qanday qadriyat o'z davrining ijtimoiy-ehtiyojlaridan kelib chiqib paydo bo'lgan bo'lsa-da, ularning har doim dolzarbligi kafolatlanmagan [3: 6-bet].

Bugungi yoshlar uchun tarixiy ong, bir tomondan, milliy identitet va madaniy xotira vositasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, globallashtirish, migratsiya, raqamli kommunikatsiya sharoitida murakkab psixologik va ijtimoiy ziddiyatlar manbai ham bo'lishi mumkin. Ayniqsa, raqamli axborot muhitida tarixiy voqealar yuzasidan mavjud bo'lgan ko'plab qarama-qarshi talqinlar, yoshlarning tarixiy haqiqatga nisbatan ishonchini pasaytirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan,

qadriyatlar transmissiyasi faqat an'anaviy usullar orqali emas, balki zamonaviy media, vizual madaniyat, ommaviy axborot vositalari orqali ham amalga oshirilishi muhim [4: 5-bet].

Transmissiya jarayonida yana bir muhim masala – qadriyatlar selektsiyasi, ya'ni qaysi qadriyatlar tarixiy meros deb tan olinadi, va qaysilari yo'q? Bu savol ko'p hollarda ideologik va siyosiy qarorlar bilan belgilanadi. O'zbekistonda mustaqillikdan so'ng bu selektsiya milliy tiklanish, o'zlikni anglash, xalqning g'ururi va tarixiy buyukligini qayta kashf qilish paradigmasi asosida olib borildi [5: 4-bet]. Shu sababli, tarixiy ongni shakllantirishda o'tmishdagi shaxslar va voqealarning aks ettirilishi ko'p hollarda afsonalashtirilgan shaklda namoyon bo'lishi mumkin. Bu esa, yosh avlodga tarixga hissiy va romantik munosabatning shakllanishiga olib keladi, biroq bu tarixiy haqiqatga asoslangan tanqidiy tafakkur bilan har doim mos tushavermaydi.

Natija va muhokamalar. O'zbekistonda yoshlar ongida tarixiy meros va qadriyatlar transmissiyasi chuqur aksiologik va ijtimoiy-falsafiy asosga ega bo'lgan jarayon bo'lib, u nafaqat tarixiy haqiqatni uzatish, balki bu haqiqatning tanlanishi, talqin qilinishi va madaniy kontekstda qayta ishlab chiqilishi orqali amalga oshadi. Bu jarayon ijtimoiy institutlar, davlat siyosati va madaniyat vositalari orqali olib borilmoqda, ammo uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tanqidiy yondashuv, yoshlarning intellektual ishtiroki va zamonaviy kommunikatsion strategiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston jamiyatining tarixiy va madaniy taraqqiyot yo'li, ayniqsa mustaqillikdan so'nggi bosqichda, yosh avlod ongida tarixiy meros va qadriyatlarning uzviy tarzda shakllanishi, saqlanishi va avlodlar avlodga uzatilishining murakkab ijtimoiy-falsafiy jarayonini taqozo etadi. Bu jarayon ijtimoiy ong, madaniy identitet, milliy mafkura, qadriyatlar tizimi hamda tarixiy xotiraning shakllanishi singari murakkab omillar bilan uzviy bog'liq. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan qadriyatlar va tarixiy meros — ijtimoiy ongning barqaror shakllari sifatida e'tirof etiladi. Qadriyatlar tizimi jamiyatdagi tarixiy voqealar, urf-odatlar, ma'naviy-mafkuraviy yo'nalishlar orqali avlodlar ongiga singdiriladi. Ayni damda bu jarayon "ijtimoiy transmissiya" fenomeni bilan izohlanadi, ya'ni qadriyatlarning bir avloddan boshqasiga madaniy vositalar orqali o'tishi ijtimoiy muhit, ta'lim tizimi, madaniyat va siyosiy institutlar vositasida amalga oshiriladi [6: 61–64].

O'zbekiston tarixiy taraqqiyotining sivilizatsiyaviy negizlari Sharq madaniy muhitida shakllangani bois, bu hududda qadimiylilik, ajdodlar xotirasiga hurmat, oila, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi qadriyatlar alohida o'rin tutadi. Bular ijtimoiy-falsafiy tafakkurda madaniyat va sivilizatsiya o'zaro munosabatida o'rganiladi. Ayni fikrlar "milliy madaniyatdan uzilgan sivilizatsiya inqirozga yuz tutadi" degan g'oya bilan dalillanadi [7: 289].

Yoshlar ongiga tarixiy merosni singdirishda ta'lim tizimi, madaniy muassasalar, OAV, milliy bayramlar, rasmiy mafkura va oiladagi tarbiya muhim vosita sifatida ishtirok etadi. Jumladan, I.A. Karimovning siyosiy-falsafiy asarlarida bu masala alohida o'rin egallab, u

“madaniy merosni tiklash, ajdodlar xotirasini ulug‘lash, tarixiy ongni mustahkamlash” tamoyillari asosida targ‘ib etiladi [8: B. 140, 147, 170]. Biroq bu jarayonda tanqidiy yondashuv ham zarur. Avvalo, tarixiy merosga haddan ziyod romantik yondashish yosh ongida tanqidiy tafakkurning shakllanishini susaytiradi. Bu esa tarixiy voqealarni real, ilmiy asoslangan tahlil asosida emas, balki mifologik va afsonaviy doirada idrok etilishiga olib keladi. Shuningdek, milliy qadriyatlarni global qadriyatlar tizimiga integratsiyalashda muvozanatni yo‘qotish xavfi mavjud. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan bu “etnosentrik tafakkur” va “universalizm” qarama-qarshiligi doirasida ko‘riladi [9:136–137].

Bundan tashqari, qadriyatlar transmissiyasining izchil amalga oshmasligi yoki uni faqat ma‘muriy-mafkuraviy vositalar bilan cheklab qo‘yish natijasida yoshlar orasida qadriyatlar bo‘shlig‘i – aksiologik vakuum shakllanishi mumkin. Bu holat ijtimoiy demoralizatsiya, g‘oyaviy indifferentlik va individualizmning kuchayishiga olib keladi. Bunday vaziyatda faqat tarixiy shaxslar va yodgorliklarni ulug‘lash emas, balki ijtimoiy institutlar orqali qadriyatlarni kundalik amaliy hayotga singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ijtimoiy-falsafiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, qadriyatlar transmissiyasi faqat monologik shaklda emas, balki dialogik - yoshlar bilan ochiq muloqot, erkin tanqid, muqobil qarashlarga hurmat asosida olib borilishi lozim. Bu ijtimoiy ongning sub‘ekt sifatida yoshlarni e‘tirof etish zaruratini taqozo etadi.

O‘zbekistonda yoshlar ongida tarixiy meros va qadriyatlar transmissiyasi murakkab sivilizatsiyaviy, madaniy va mafkuraviy omillar ta‘sirida kechayotgan ijtimoiy-falsafiy jarayondir. Uning muvaffaqiyati tanqidiy tafakkur, tarixiy xotira va zamonaviy dunyoqarash uyg‘unligiga bog‘liqdir. Jamiyatda kechayotgan madaniy-ma‘naviy jarayonlar, ijtimoiy va global o‘zgarishlar sharoitida tarixiy meros va qadriyatlarning yoshlar ongiga ta‘sir qilish mexanizmlari ijtimoiy falsafaning muhim tahlil obekti hisoblanadi. Bu jarayon ayniqsa «qadriyatlar transmissiyasi», ya‘ni qadriyatlarning avlodlararo uzatilishi fenomeni orqali namoyon bo‘ladi. Tarixiy meros va qadriyatlar ijtimoiy ongning strukturaviy elementi bo‘lib, ular jamiyat taraqqiyotining barqarorligini ta‘minlaydi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda yoshlar ongida tarixiy meros va qadriyatlar transmissiyasini tahlil qilish nafaqat amaliy, balki chuqur nazariy va falsafiy muammo sifatida ham dolzarbdir.

XIX asr oxiri va XX asr falsafiy tafakkurida akseologik yondashuv markaziy o‘ringa chiqdi. Bu davrda qadriyatlar muammosi barcha falsafiy yo‘nalishlarning markaziy mavzusi sifatida shakllandi. Akseologiya qadriyatlar haqidagi ilm sifatida qadriyatlarni insoniy faoliyat, ong va madaniyat bilan uzviy bog‘laydi [10: 126–148]. O‘zbekiston misolida qaralganda, tarixiy meros – bu nafaqat moddiy yodgorliklar, balki ajdodlardan qolgan ijtimoiy ong, ma‘naviy tajriba, urf-odatlar, din va madaniy xotiradir. Qadriyatlarning yoshlar ongiga transmissiyasi, eng avvalo, ijtimoiy institutlar: oila, maktab, OAV, madaniyat muassasalari, rasmiy mafkura vositasida amalga

oshiriladi. Bu jarayonning ijtimoiy-falsafiy mohiyati shundaki, tarixiy meros va qadriyatlar zamonaviylik bilan dialogda bo'lishi, yosh avlod ongida tanqidiy va ijodiy tarzda qayta ishlanishi lozim.

Tarixiy merosning idealizatsiyasi va mifologizatsiyasi yosh ongida tanqidiy tafakkurdan yiroq, passiv qabulga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, qadriyatlar transmissiyasi jarayonida tanqidiy refleksiya markaziy o'ringa chiqishi kerak. Refleksiya – bu insonning o'z ichki dunyosi va tashqi haqiqatni anglab, ularni baholashga qaratilgan intellektual faoliyatidir. Bu faoliyat natijasida inson qadriyatlarni ongli ravishda o'zlashtiradi va ularga amal qiladi [11:136–137].

O'zbekistonda mustaqillikdan keyingi davrda qadriyatlar transmissiyasi davlat siyosatining markaziy yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Bu holat, bir tomondan, yoshlarning tarixiy xotira va milliy identitetini mustahkamlasa, boshqa tomondan, ularni ideologik stereotiplarga bog'lanib qolish xavfi bilan to'qnash keltiradi. Ayniqsa, globallashuv davrida transmilliy madaniyat oqimlari mahalliy qadriyatlar tizimiga ta'sir o'tkazmoqda, natijada qadriyatlar bo'shlig'i (aksiologik vakuum) shakllanishi mumkin [12: 289–293]. Shu sababli, qadriyatlar transmissiyasining barqarorligi uchun tarixiy merosga faqat ehtirom bilan emas, balki tanqidiy ong bilan yondashish, uni zamonaviylik kontekstida qayta anglash zarur. Yoshlarning ongida qadriyatlar faqat targ'ibot bilan emas, balki shaxsiy tajriba, ijtimoiy amaliyot va ongli tanlov orqali shakllanishi muhimdir.

O'zbekiston ijtimoiy falsafiy kontekstida qadriyatlar transmissiyasi jarayoni tarix, madaniyat, ideologiya va zamonaviylik o'rtasidagi murakkab dialektik o'zaro ta'sirda kechadi. Bu jarayonda yosh avlod faqat obekt emas, balki faol subekt sifatida shakllanishi zarur.

Yosh avlod tafakkuri, o'zlikni anglash shakllanishi va ma'naviy dunyosining mazmuni muayyan tarixiy, madaniy va ijtimoiy sharoitda yuzaga keladi. Ayniqsa, ijtimoiy falsafa kontekstida bu jarayon qadriyatlar transmissiyasi, ya'ni avlodlararo uzluksizlikda shakllanadigan tarixiy, axloqiy, estetik va diniy g'oyalar, ramzlar, ideal va normalarning yosh ongiga o'tish mexanizmini anglatadi. O'zbekiston sharoitida bu jarayon mustaqillikdan so'ng keskin faollashdi va ayniqsa globallashuv, ommaviy madaniyat va axborot texnologiyalari fonida yangi vazifalar yuzaga keltirdi. Tarixiy meros va qadriyatlar o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan ijtimoiy-madaniy xotirasidir. Ular jamiyat hayotining meyoriy, axloqiy va madaniy yo'nalishlarini belgilaydi. Biroq ijtimoiy-falsafiy jihatdan tarixiy meros faqat o'tmishni eslatish emas, balki hozirgi zamon bilan dinamik muloqotda bo'ladigan g'oyaviy resursdir. Aynan mana shu nuqtai nazardan tarixiy meros – bu hozirgi avlodlar hayotida g'oyaviy-ma'naviy barqarorlikning asosi sifatida namoyon bo'ladi [13: 45].

O'zbekiston sharoitida qadriyatlar transmissiyasi bir necha o'ziga xos omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, mustaqillik yillarida milliy identitetni qayta tiklash jarayoni boshlangani

natijasida tarixiy merosga bo'lgan munosabat qayta ko'rib chiqildi. Ikkinchidan, o'sib kelayotgan yosh avlod ilgari sovet davrida rad etilgan ko'plab madaniy va diniy qadriyatlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi. Uchinchi tomondan, globalashuv va postmodern axborot jamiyati sharoitida o'z milliy qadriyatlarini anglash va ularni zamonaviy talqinda jonlantirish zarurati tug'ildi. Bu esa, o'z navbatida, qadriyatlarning yoshlar ongiga o'tishi jarayonini chuqur falsafiy tahlil qilishni talab qiladi. Falsafiy jihatdan qadriyatlar insonning borliq bilan o'zaro munosabatini belgilovchi mohiyatli shakldir. E. Fromm qadriyatlarni "insonning mavjudlik asosini anglash shakli" deb ta'riflaydi [14: 64]. Transmissiya esa qadriyatlar tizimining bir avloddan boshqasiga o'tish jarayonini anglatadi va bu jarayonda ijtimoiy institutlar – oiladan boshlab maktab, oliy ta'lim, ommaviy axborot vositalari va diniy muassasalar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'zbekiston jamiyatida bu jarayon ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun axloqiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi asosida qurilmoqda. Biroq bu yo'nalishda muammolar ham yetarli. Avvalo, qadriyatlar transmissiyasida formallik va samimiyluk o'rtasidagi tafovut dolzarbdir. Ko'plab tadbirlar, konferensiyalar va tashviqot ishlari tashqi shakllarga urg'u beradi, ammo yoshlar ongida chinakam qadriyat shakllanishini ta'minlamaydi. Bu esa, Z. Baumanning ta'biri bilan aytganda, "suqrotik beqarorlik" holatini yuzaga keltiradi [15: 125]. Yana bir dolzarb muammo – bu qadriyatlarning g'arbcha individuallik va postmodernistik liberal g'oyalar bilan to'qnashuvi. O'zbek jamiyatida tarixiy merosda jamoaviyluk, ma'naviy bog'liqlik, madaniy uyg'unlik asosiy qadriyatlar bo'lsa, zamonaviy axborot vositalari yosh ongiga individualist, utilitar va ko'ngilochar qadriyatlarni singdiradi. Bu esa g'oyaviy ikkiyuzlamachilikka, shaxsiy ma'naviy boshboshdoqlikka olib keladi.

Yana bir ijtimoiy-falsafiy muammo – bu yoshlarning qadriyatlarni ongli ravishda tanlash layoqatining pastligi. O'quv yurtlarida berilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ta'lim, ko'p hollarda, yoshlar tomonidan utilitar maqsadda, ya'ni imtihondan o'tish vositasi sifatida qabul qilinadi. Natijada qadriyatlar ongda barqaror axloqiy meyorlar sifatida emas, balki formal mazmundagi bilimlar to'plami sifatida shakllanadi. Ayni paytda O'zbekistonda qadriyatlar transmissiyasining muhim manbai bu milliy tarixning ramziy-tarixiy personajlari – Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy siymolaridir. Ularning hayoti va merosi yosh ongiga ideal shaklida taqdim etiladi. Shu bilan birga, ularning qadriyatlarini zamonaviy kontekstda talqin qilish – ularning ruhiyatini, ijtimoiy ongini, insoniy pozitsiyasini yoshlar hayotiga implementatsiya qilish kerak. Bu esa, axloqiy-falsafiy jihatdan, qadriyatlarning estetik, ontologik va ekzistensial darajada tushuntirilishini taqozo etadi [16: 73].

Transmissiya jarayonining falsafiy mohiyati, o'z navbatida, identitetni tiklash bilan bog'liq. Identitet – bu shaxsning o'zini jamiyatda qanday anglashi, jamiyatdagi roli, tarixiy-madaniy ildizlari bilan qanday bog'lanishini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, qadriyatlar transmissiyasi –

bu shunchaki axborot yoki an'ana o'tkazish emas, balki shaxsning o'zligini tarixiy va madaniy asosda anglash jarayonidir. Ijtimoiy-falsafiy jihatdan qadriyatlar ijtimoiy ongda ikki darajada mavjud: empirik-massoviy va kontseptual-teoretik. Empirik darajada qadriyatlar urf-odatlar, rasm-rusumlar, udumlar shaklida ifodalanadi, kontseptual darajada esa ular ontologik va aksiologik tizimlar vositasida tushuntiriladi. Yoshlar ongida qadriyatlar barqaror shakllanishi uchun bu ikki daraja – oddiy hayotiy bilim va chuqur nazariy asos bir butunlikda taqdim etilishi lozim [17: 98].

O'zbekiston sharoitida qadriyatlar transmissiyasining muhim masalasi – bu diniy qadriyatlarning talqini va yoshlar ongiga singdirilishidir. Bu yerda e'tiborli jihat shuki, diniy qadriyatlar bir tomondan ijtimoiy hayotda tartib va axloqiyligni ta'minlaydi, boshqa tomondan esa noto'g'ri talqin qilingan holatda radikalizm va ekstremizm xavfini yuzaga keltirishi mumkin. Shu bois, qadriyatlar diniy manbalar asosida, lekin zamonaviy ijtimoiy-falsafiy interpretatsiyada yetkazilishi zarur.

O'zbekistonda yoshlar ongida tarixiy meros va qadriyatlar transmissiyasi ijtimoiy-falsafiy kontekstdagi dolzarb masala bo'lib, u milliy identitetning shakllanishi, barqarorligi hamda modernizatsiyalashuv jarayonlarida hal qiluvchi o'rin tutadi. Ushbu jarayonni tahlil qilishda, avvalo, tarixiy meros va qadriyatlar nafaqat avlodlararo madaniy merosning biologik yoki passiv uzatmasi, balki ijtimoiy ongda aks etuvchi faol va ongli hodisa sifatida namoyon bo'lishini tan olish lozim. Tarixiy meros bu yerda static yodgorliklar, urf-odatlar majmuasi emas, balki ijtimoiy ongda qayta-qayta talqin qilinadigan, kontekstga ko'ra mazmun kasb etuvchi ijtimoiy-konstruktsiyalashgan hodisa sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, yoshlar ongida tarixiy ong va qadriyatlar shakllanishi O'zbekiston jamiyatida identitet siyosatining markaziy komponenti sifatida ko'riladi.

O'zbekistonning mustaqillikdan keyingi davri tarixiy xotiraning qayta shakllantirilishiga olib keldi. Bu jarayonda milliy istiqlol g'oyasi asosida tarixiy merosni yangi g'oyaviy platformada restavratsiya qilishga urinildi. Bunda Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Alisher Navoiy, Bobur, Imom Buxoriy kabi tarixiy shaxslarning merosi markaziy o'ringa chiqarildi. Bu, bir jihatdan, mustamlakachilik davridagi tarixiy tazyiqlarga nisbatan kompensator mexanizm bo'lsa, ikkinchi tomondan, zamonaviy yosh avlodni milliy birdamlik asosida tarbiyalash vositasi sifatida qaraldi. Lekin bu restavratsiya jarayoni idealizatsiyaga, selektiv tarixiylikka olib kelgani bois, uning falsafiy mohiyatiga chuqur kirib borishni taqozo etadi. Chunki qadriyatlar faqat reproduktiv emas, balki kreativ rekonstruktsiya talab etuvchi hodisalardir [18: 124].

Tarixiy meros va qadriyatlarning transmissiyasi ijtimoiy ong va amaliy faoliyatning turli institutlari orqali amalga oshadi. Jumladan, maktab, oliy ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, oilaviy tarbiya, diniy-ma'rifiy muassasalar ushbu jarayonda asosiy

agentlar hisoblanadi. Biroq bu agentlarning faoliyati ko'p hollarda formallashgan, byurokratik-ritualistik tusga ega bo'lib, mazmun emas, shakl ustuvorlik kasb etmoqda. Ayniqsa, yoshlar auditoriyasiga mo'ljallangan rasmiy nutqlar, ommaviy tadbirlar, targ'ibot materiallari qadriyatlarni zamonaviy tafakkur vositasida emas, balki tarixiy romantizm orqali yetkazishga urinadi. Bu esa yosh ongida modern kontekstdagi tarixiy ongning emas, balki sentimental-mifologik ong shakllanishiga olib keladi [19: 88]. Ijtimoiy-falsafiy jihatdan qadriyatlar transmissiyasi avvalo epistemologik va aksiologik kontekstda qaralishi lozim. Bu yerda yosh inson tarixni bilish orqali emas, balki uni qadrlash orqali ijtimoiy mavjudlikda o'z o'rnini topadi. Demak, tarixiy faktlar emas, balki ularning ma'nosi, talqini muhim. Shu bois, yoshlar bilan ishlashda tarixiy-ma'rifiy metod emas, aksiologik-pragmatik metod ustuvor bo'lishi kerak. Aks holda, tarixni yodlash borasida formalist yondashuv kuchayadi va tarix tirik fenomen sifatida emas, balki arxiviy ma'lumotlar majmuasi sifatida qabul qilinadi.

Bundan tashqari, qadriyatlar transmissiyasi jarayonida sotsial va madaniy kontekstlar muhim o'rin tutadi. Bugungi O'zbekiston jamiyatida iqtisodiy, siyosiy, texnologik o'zgarishlar natijasida avlodlararo qadriyatlar tafovuti keskinlashmoqda. Bu tafovut yoshlar bilan katta avlod o'rtasida tarixga va qadriy ma'noga bo'lgan munosabatda ziddiyatlar keltirib chiqarmoqda. Bu ziddiyatlarni bartaraf qilish uchun qadriyatlar nafaqat uzatilishi, balki zamoniy talablarga ko'ra yangilanib, qayta tushuntirilishi kerak. Transmissiyaning bu jihati ijtimoiy-falsafiy jarayon sifatida ijtimoiy reproduksiya va transformatsiya mexanizmlarini o'z ichiga oladi [20: 212].

G'arbiy modernlik qadriyatlari va mahalliy an'anaviy qadriyatlar o'rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklar kontekstida yoshlarning tarixiy ongida ambivalentlik kuchaymoqda. Internet, ommaviy madaniyat va transmilliy kommunikatsiyalar orqali kirib kelayotgan individualistik, liberal qadriyatlar mavjud kollektivist, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tizimiga qarshi tura boshladi. Bu esa yoshlar orasida tarixga nisbatan relativistik, ba'zan esa instrumental yondashuvlarning shakllanishiga olib kelmoqda [21:63]. Shu jihatdan, qadriyatlarning ijtimoiy transmissiyasi endi bir yoqlama g'oyaviy uzatma emas, balki madaniy bahslar maydoniga aylangan. Shuningdek, O'zbekistonning rasmiy tarixiy siyosatida "tarixiy faxr", "milliy iftixor" kategoriyalari asosida shakllantirilayotgan tarixiy ong ba'zan tanqidiy tafakkurni chetlab o'tadi. O'z-o'zini ideallashtirish, tarixni faqat g'alabalar majmuasi sifatida ko'rsatish orqali yosh avlodda tarixiy mas'uliyat emas, balki tarixiy romantizm shakllanadi. Bunday yondashuv esa yoshlarni tarixiy saboqlarni tahlil qilish emas, balki ularni estetik qabul qilish darajasida qoldiradi. Natijada, tarixiy ong "falsafiy-tergov" emas, balki "ideologik-shior" vositasiga aylanib qoladi.

O'zbekistonda yoshlar ongida tarixiy meros va qadriyatlar transmissiyasi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, bu nafaqat avlodlararo axborot uzatish, balki identitet qurilishi, madaniy yangilanish va tarixiy ong shakllanishi kabi murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu

jarayonning samaradorligi esa rasmiy ideologik yondashuvdan tashqari, tanqidiy, zamonaviy, interaktiv va kreativ metodologiyalarni jalb qilish bilan bog'liq. Shundagina yoshlar o'z tarixini nafaqat biladi, balki unga aksiologik e'tiqod asosida munosabat bildiradi.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlar asosida xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda yoshlar ongida tarixiy meros va qadriyatlar transmissiyasi ijtimoiy-falsafiy jihatdan murakkab, ko'p qatlamli, zamonaviylik va an'anaviylikning dinamik ziddiyatida kechayotgan jarayondir. Uni samarali amalga oshirish uchun bir tomondan jamiyatning institutsional majburiyatlari, boshqa tomondan esa har bir shaxsning ongli ishtiroki zarur. Bu borada axloqiy, estetik, diniy va madaniy qadriyatlar bir butun tizimda yoshlar ongiga singdirilishi, ularning faqat tashqi targ'ibot emas, ichki ruhiy ehtiyojga aylanishi ta'minlanmog'i lozim. Falsafa bu jarayonda faqat tahlil vositasi emas, balki jamiyatning g'oyaviy meyorlarini aniqlovchi, ularni asoslab beruvchi va singdiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya). – T.: O'zbekiston Milliy universiteti, 2004. – 11–14-betlar
2. Oripov E. An'anaviy va zamonaviy qadriyatlar dialektikasi. – Namangan: Qo'qon DPI, 2023. – 4-bet.
3. Topildiyev O. Qadriyatlar falsafasi. – Namangan: NamDU, 2014. – 6-bet.
4. To'xtayev H.P. Zamonaviy aksiologiya qonuniyatlarining Yangi O'zbekistonga xos namoyon bo'lish xususiyatlari. – T.: O'zbekiston Milliy universiteti, 2024. – 5-bet.
5. Oripov E. An'anaviy va zamonaviy qadriyatlar dialektikasi. – Namangan: Qo'qon DPI, 2023. – 4-bet.
6. Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси. – Т.: Файласуфлар миллий жамияти, 2004. – 61–64-б.
7. Ижтимоий фалсафа. Кулланма (Lotincha). – Т.: «O'zbekiston», 2005. – 289–336-б.
8. Каримов И.А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 140, 147, 170-б.
9. Фалсафа комусий луғат. – Т.: Шарқ, 2004. – 136–137-б.
10. Лосский Н.О. Ценность и бытие. – М.: 2000. – Б. 126–148.
11. Фалсафа комусий луғат. – Т.: Шарқ, 2004. – Б. 136–137.
12. Ижтимоий фалсафа. – Т.: Ўзбекистон, 2005. – Б. 289–293.
13. Каган М.С. Философская теория ценности. – СПб.: Лань, 1997. – 336 б. (б. 45).
14. Фромм Э. Искусство любить. – М.: АСТ, 2000. – 128 б. (б. 64).
15. Бауман З. Текучая современность. – М.: Логос, 2007. – 232 б. (б. 125).

16. Мамардашвили М.К. Классический и неклассический идеалы рациональности. – М.: Наука, 1999. – 215 б. (б. 73).
17. Столович Л.Н. Красота. Добро. Истина. – М.: Мысль, 1994. – 222 б. (б. 98).
18. Muminov A.M. O‘zbekiston: milliy g‘oya va tarixiy meros. – Toshkent: Sharq, 2008. – 210 b. – B. 124.
19. Islomov S.S. Yoshlar va tarixiy xotira: ijtimoiy-falsafiy tahlil. – Toshkent: Fan, 2020. – 138 b. – B. 88.
20. To‘xliyev M.T. Falsafa va yoshlar tarbiyasi. – Samarqand: Ilm ziyo, 2021. – 236 b. – B. 212.
21. Rustamov A.I. Zamonaviylik va an’anaviylik: ijtimoiy-falsafiy tahlil. – Toshkent: Ijtimoiy fikr, 2019. – 96 b. – B. 63.